



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 63-72 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQA SANOAT KORXONALARI BARQAROR RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA OMILLARINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI



Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich

UrDU Stajor o'qtuvchisi

Annotatsiya: Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish bo'yicha qarashlar hamda yondashuvlarning mintaqaviy xususiyatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, mintaqalarda sanoatni barqaror rivojlantirish omillarining ilmiy-nazariy yondashuvlari tizimlashtirilgan. Mazkur tushuncha bo'yicha mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa; sanoat; sanoat barqaror rivojlanishi; omil; samaradorlik; model.

Аннотация: Изучены региональные особенности представлений и подходов промышленных предприятий к устойчивому развитию. Также систематизированы научно-теоретические подходы к факторам устойчивого промышленного развития в регионах. Разработаны авторские подходы к данной концепции.

Ключевые слова: регион; промышленность; устойчивое развитие промышленности; фактор; эффективность; модель.

Abstract: Regional characteristics of industrial enterprises' perceptions and approaches to sustainable development were studied. Scientific and theoretical approaches to the factors of sustainable industrial development in the regions were also systematized. Original approaches to this concept were developed.

Key words: region; industry; sustainable industrial development; factor; efficiency; model.

Kirish. Mintaqa sanoat korxonalari barqarorligi bilan bog'liq tadqiqotlar zamirida asosiy e'tibor iqtisodiy jihatlarga qaratilgan. Shunday bo'lsada, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni tizimlashtirish talab qilinadi. Bunda, mintaqa sanoat korxonalari barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy mezonlarga ham bog'liq hisoblanadi. Chunki, sanoat faoliyatini tashkil qilish, uning ishlab chiqarish omillari o'zaro samarali aloqalarini ta'minlash inson omili hisobiga amalga oshiriladi. Shuningdek, sanoat korxonalari barqaror rivojlanishi ichki hamda tashqi muhit hisobiga ham o'zgarib boradi. Demak, mintaqa sanoat korxonalari barqaror rivojlanishini iqtisodiy, ijtimoiy hamda omilli va natijaviy jihatlari bo'yicha tadqiq qilishimiz zarur. Bunda, dastlab iqtisodiy jihatlarga muvofiq mintaqa sanoat korxonalari barqaror rivojlanishi tadqiq qilingan ishlarning o'ziga xos jihatlari ochib beramiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki¹, "barqaror rivojlanish" tushunchasi keng qamrovli ma'noga ega va boshqaruvning turli darajalariga: global, milliy, mintaqaviy va tashkiliy darajalariga qo'llanilishi mumkin. Tashkilotning

¹ Салимова Т.А., Гудкова Д.Д. Инструментарий оценки устойчивого развития организации // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки. 2017. Т. 10, № 5. С. 151 – 160. DOI: 10.18721/Е.10514.

barqaror rivojlanishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u tadqiqotda tashkilotga uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlar o'rtasidagi muvozanatni, shuningdek, hozirgi va kelajakda barcha manfaatdor tomonlar guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda mas'uliyatli ishlash natijalarini ta'minlash imkonini beruvchi rivojlanish sifatida ta'riflanadi. Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishi bilan bog'liq qarashlar zahirida makro va mezo darajaga nisbatan aniq chegaralarga ega bo'lgan tizimning maqsadli ko'rsatkichlarini o'rnatish lozim. Chunki, bir korxonada doirasida barqarorlikni qarab o'tganimizda, uning o'ziga xos jihatlari aniq o'lchash imkoniga ega bo'lamiz. Shunday bo'lsada, sanoatning barqaror rivojlanishi bilan bog'liq tadqiqotlarni tizimli ravishda tahlil etamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda barqarorlik konsyepsiyasi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarni qamrab oladi. Kelajak avlodlar o'z ehtiyojlarini qondirishlari uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillarni, shuningdek, endogen imkoniyatlardan foydalanishni muvozanatli hisobga olish talab etiladi. Barqaror mintaqaviy rivojlanish jarayoni bir nechta tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: institusional muhit, siyosat va tashabbuslar, endogen resurslardan sinergik foydalanish va kommunikatsiyalar².

Tahlil va natijalar. Jumladan, T.N.Topoleva fikricha, sanoat korxonasi iqtisodiy barqarorligi uning ichki va tashqi omillari bilan o'zaro bog'liqligi hamda ta'siri hisobiga shakllanib, korxonada samarali rivojlanishi sanaladi³. Fikrimizcha, muallif sanoat korxonalarining barqarorligini ishlab chiqarish va muomala faoliyati nuqtai nazaridan tavsiflamoqda. Ishlab chiqarish jarayoni ichki muhit omillari hisobiga yuz bersada, ularning uzluksizligi mavjud resurslar ta'minotiga bog'liq. Shu jihatdan, sanoat barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi birinchi navbatda ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Bu borada, mintaqada sanoat korxonalarini to'g'risida gapirganimizda, sohaning ixtisoslashuvi ham resurslarning hududiy joylashuviga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, mintaqalar sanoat siyosatini olib borishda ham mavjud omillarni e'tiborga olishimiz zarur. Demak, mintaqada sanoat sohasining rivojlanishigina emas, uning ixtisoslashuvi ham birinchi galda ichki omillarga bog'liq ekan. Rivojlanishi, uning uzoq muddatli barqarorligi esa tashqi omillar hisobiga ta'minlanadi.

Yuqoridagi tavsif qatori, korxonalar barqaror rivojlanishiga uch element muvofiqligida berilgan ta'riflar ham mavjud. Jumladan, sanoat korxonalarining faoliyati va rivojlanishi barqarorligi deganda uning ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy faoliyatining barqarorligi va izchil kengayishi, ijtimoiy majburiyatlarni so'zsiz bajarish va tabiiy muhitga minimal texnogen ta'sir ko'rsatish tushuniladi⁴. Fikrimizcha, mazkur ta'rif barqaror rivojlanishning har uchchala elementini o'zida mujassamlashtirmoqda. Shunday bo'lsada, mualliflar asosiy e'tiborni iqtisodiy-moliyaviy manbaga qaratishmoqda. Demak, sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishi zahirida ham iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik

² Ибрагимова З.А. Фундаментальные принципы устойчивого развития региона // Известия ТулГУ. Экономические и юридические науки. 2024. Вып. 1. С.99-108.

³ Тополева Т. Н. Исследование принципов и факторов устойчивого развития промышленного предприятия // Вестник НИПЭИ. 2018. № 6 (85). С. 85-96.

⁴ Вахромов Е. Н., Маркарян Д. Ю. Оценка устойчивости развития и функционирования предприятия: факторы, критерии, особенности // Вестник АГТУ. 2008. №4. С.52-62.

muhit uyg'unligini va ularning maksimal darajada foydaliligini e'tiborga olishimiz zarur ekan.

M.A.Betilgiriyeu hamda R.Sh.Datsayeualar fikricha, korxona barqaror rivojlanishi zamirida uning doimiy yuqori operasion natijasini saqlab turadigan mahsulotlar ishlab chiqarishi va sotish dinamikasi, moddiy hamda xarajatlar tarkibining o'sishi, uni kapitallashtirish sifatida tavsiflaydilar⁵. Fikrimizcha, mazkur tadqiqotda korxona barqaror rivojlanishi iqtisodiy jihatdan tavsiflanmoqda. Yuqoridagi izlanishlardan ko'rib o'tdikki, barqaror rivojlanish korxona darajasida o'rganilganda nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy va ekologik masalalarni ham qamrab olishi zarur bo'ladi. Chunki, barqarorlik shartlaridan biri va asosiysi aholiga munosib turmush tarzini ta'minlashdan iborat.

Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlardan biri V.E. Nikolayev, E.I. Kuzmina, V.V. Nikolayevlarning ishi hisoblanadi. Mualliflar korxona barqaror rivojlanishi zamirida o'z xodimlari uchun munosib hayot sifatini ta'minlash qobiliyatini tushunadilar⁶. Fikrimizcha, mazkur ta'rifda muallif asosiy e'tiborini ijtimoiy mezonga qaratgan. Shunday bo'lsada, qolgan jihatlari e'tibordan chetda qolgan. Yohud ushbu tavsif sodda va bir taraflama bo'lib qolgan.

Nisbatan to'liq tavsif I.V.Bekrenev, Ya.N.Lofovskayalar tomonidan berilgan. Jumladan, mualliflar fikricha, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi bu tashqi va ichki muhit omillarining kombinatsiyasi ta'sirida iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va innovasion sohalarni maqsadli va muvozanatli rivojlantirish hamda Pareto optimalligi tamoyiliga muvofiq ularning barqarorligini ta'minlash qobiliyati, deb ta'rif berilgan⁷. Fikrimizcha, mazkur ta'rif sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishining barcha jihatlari o'z ichiga olmoqda. Ya'ni, uning omillarini ham, mezonlarini ham qamrab olgan.

Yuqoridagilar qatori boshqarish nuqtai nazaridan ham barqarorlikni ko'rib o'tgan izlanishlar mavjud. Barqaror rivojlanish yo'nalishida ishlab chiqarishni boshqarish odamlarning o'sib borayotgan ehtiyojlari va biosfera hamda tabiiy resurslarning cheklangan imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hisobga olishi va iste'mol, ishlab chiqarish darajalari hamda atrof-muhit omillari o'rtasidagi oqilona bog'liqlikni aniqlashi kerak⁸. Fikrimizcha, korxonalar, ya'ni sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishini boshqarish yondashuvida ko'rilgan ishlarda ustuvorlik ehtiyoj hamda mahsulotlar yaratish mutanosibligida ko'rib o'tilgan. Jumladan, bunda cheklanmagan ehtiyojlarni cheklangan resurslar asosida maksimal darajada qondirish sanoat va ishlab chiqarish omillarini oqilona hamda maqbul taqsimlashga bog'liq. Bu esa boshqarish jarayoni bilan hal etiladigan masaladir.

I.Umarov tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishi o'rganilgan bo'lib, muallif mazkur masalani samaradorlik bilan bog'lagan⁹. Uning fikricha, oziq-ovqat

⁵ Бетилгириев М.А., Дацаева Р.Ш. Концептуальные подходы обеспечения устойчивого развития предприятия как хозяйствующего субъекта экономики региона // Управление экономическими системами: [электронный научный журнал]. URL: <http://www.uecs.ru/uecs-37-372012/item/982-2012-01-26-08-56-08>.

⁶ Николаев В.Е., Кузьмина Е.И., Николаев В.В. Сертификация систем менеджмента устойчивого развития // Вестник качества. 2010. № 1. С. 20—27.

⁷ Бекренев И.В., Лозовская Я.Н. Методические аспекты формирования адаптивного механизма устойчивого развития предприятия на основе целевого комплексного подхода // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Экономика. 2017. Т. 25. № 2. С. 233—241. DOI: 10.22363/2313-2329-2017-25-2-233-241.

⁸ Армишева Т.Г. Основы общей экологии: учеб. пособие. Пермь: Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2014. Ч.1. 200 с.

⁹ Умаров И.Ю. Озиг-овкат саноатида тадбиркорлик фаолияти самарадорлигини эконометрик моделлар ёрдамида истиқболлаштириш // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ. 2019, 2(122). 20-26-б.

sanoatida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlatning roli beqiyosdir. U birinchi navbatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni bartaraf etish, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish, eksportni rag'batlantirish, importni maqbullashtirish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish, moliya kredit mexanizmlarini rivojlantirish kabi masalalarda yordam berishi zarur. Fikrimizcha sanoatni rivojlantirish, uning barqaror davomiyligini ta'minlash samaradorlik bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shunday bo'lsada, korxonalarda barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan samaradorlikni ta'minlashda ikki jihatga alohida e'tibor qaratishimiz zarur bo'ladi. Jumladan, birinchidan, ishlab chiqarish uchun zaruriy bo'lgan xom ashyoning mavjudligi hamda undan yuqori samarada foydalanishga hamda, ikkinchidan ishlab chiqarilgan mahsulotning yuqori daromad bilan sotishga e'tibor qaratishimiz zarur bo'ladi. Mazkur masalalar nafaqat korxonaning ichki omillari bilan, balki mintaqaning sanoat siyosatiga ham bog'liq sanaladi. Shu bois, sanoat korxonalari barqaror rivojlanishini ta'minlashda mintaqada munosib sanoat siyosatini yuritishga ham e'tibor qaratishimiz zarur.

Jumladan, bir tadqiqot ishida sanoatning barqaror rivojlanishi sanoat siyosatiga bog'liq holda o'rganilgan. Ya'ni, sanoat siyosati – sanoat ishlab chiqarishining samaradorligini rag'batlantirishga, alohida sanoat tarmoqlari va korxonalari raqabatchilikni oshirishni ta'minlashga, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirishga, shuningdek yangi ish joylarini yaratishga qaratilgan davlat siyosatidir, deya ta'kidlab o'tilgan¹⁰. Shu bilan birga, sanoat siyosatini amalga oshirish vazifalari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan: qazib olish tarmoqlariga nisbatan qayta ishlash tarmoqlarining ishlab chiqarish hajmini o'stirish; bozor uchun yangi bo'lgan yuqori texnologiyali mahsulot turlarini yaratish; zamonaviy fan-texnika imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish; xom-ashyo va materiallarni samarali qayta ishlash va ulardan yuqori qo'shimcha qiymatli iste'mol mahsulotlari yaratish; rivojlangan mamlakatlar tajribalarini va ularning ilmiy texnik va texnologik yutuqlarini o'zlashtirish; eksportni rivojlantirish maqsadida eksportyorlarga soliq va bojxona bojlari bo'yicha imtiyozlar berish; sanoat tarmoqlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida moliyaviy sektor mablag'laridan samarali foydalanish; yangi texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash; texnologik sig'imkorligi yuqori sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish; ekologik xavfsizlikni ta'minlash.

Bir guruh tadqiqotchilar esa, sanoatning mintaqaviy rivojlanishi, uning barqarorligi va hududlardagi iqtisodiy o'sish masalalarini uyg'unlikda o'rganishgan. Ularning tadqiqotlarida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga muvofiqlikda o'rganilgan. Ya'ni, mualliflar fikricha zamonaviy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni tahlil qilish quyidagilar asosida amalga oshirildi:

¹⁰ Умаров О.О. Саноат сиёсатини ривожлантиришнинг йўналишлари // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454. Volume 3, Issue 16, August, 2023. 19-26-б.

YAIM tarkibida iqtisodiyot tarmoqlari (birlamchi va ikkilamchi tarmoqlar, xizmat ko'rsatish sohalari) ulushi dinamikasi (tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish nisbati) va ish bilan band bo'lganlar soni;

YAIM tarkibidagi tarmoqlar ulushi dinamikasi (shu jumladan, tarmoq elastikligi koeffitsiyentlari va tarkibiy avans koeffitsiyentlaridan foydalangan holda);

import va eksport tarkibining harakati;

oraliq iste'mol harakati (moddiy talab);

ishlab chiqarish va iste'mol dinamikasi;

iqtisodiyot o'sish sur'atlarining dinamikasi (shu jumladan, iqtisodiyotning o'sish sifati indeksidan foydalangan holda)¹¹.

Fikrimizcha, mazkur izlanishda mualliflar sanoatni nafaqat mintaqa, balki makro darajada talqin etib o'tishgan. Shunday bo'lsada, sanoat barqarorligini bir korxonada doirasida emas, balki butun mintaqadagi tarmoqqa qarab baho bergan. Ayniqsa, unda sanoatning tarkibiy tuzilishiga, ularning o'zaro mutanosibligiga va muvofiqligiga e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda, sanoatning barqarorligi mintaqaviy jihatlari qatorida tarkibiy o'zgarish hamda islohotlar natijasi bilan bog'lanmoqda.

Shuningdek, mintaqalarni rivojlantirish, uning sanoat sohasi barqarorligini ta'minlash masalalarini innovatsiyalar bilan bog'liqlikda o'rgangan izlanishlar ham mavjud. Jumladan, A.I.Tatarkin tadqiqotlarida mintaqa sanoat tarmog'ini barqaror rivojlantirishda innovatsiyalar muhim deb, uning zamonaviy sharoitdagi omili sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, muallif mazkur tadqiqotlari doirasida ta'sir qiluvchi omillarni ikki guruhga, eksternal va internal manbalarga ajratishni ilgari surgan¹². Shu bilan birga, mintaqada sanoatni innovasion rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozimligi ko'rsatib o'tilgan:

innovasion jarayonlarda davlatning ishtiroki;

texnologiyalarning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik darajasi;

innovasion jarayonlarning axborotlashtirilganlik darajasi;

innovasion infratuzilma;

fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashganlik darajasi;

me'yoriy-huquqiy muhit ta'minlanganligi;

iqtisodiyot tarmoqlarining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi.

Bizning fikrimizcha, sanoatni rivojlantirish, uning barqarorligi omillari birgina innovatsiyalar bilan emas, balki an'anaviy omillarga ham bevosita bog'liqdir. Chunki, mavjud resurslar, ishchi kuchi, bozor va xomashyo bo'yicha axborotlarni ham e'tiborga olishimiz zarur.


Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, mintaqa sanoatiga innovatsiyani tatbiq etish quyidagi sabablar tufayli zarur, deya ta'kidlangan¹³. Jumladan: tabiiy resurslar defisitining chuqurlashuvi hamda muntazam ravishda ular narxining oshib borishi; madaniylashgan taraqqiyot, ya'ni sanoat ishlab chiqarishda iste'mol, ijtimoiy va ekologik standartlarning

¹¹ Хашимов П.З., Устаджаалиев Д.Р. Миллий иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш йўллари // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ. 2020, 2(134). 11-20-б.

¹² Татаркин А.И. Промышленная политика: генезис, региональные особенности и законодательное обеспечение. / А.И.Татаркин, О.А.Романова. // Экономика региона, 2014, №2. С.9.

¹³ Батирова Н.Ш. Минтақа саноати инновацион ривожланишининг назарий жиҳатлари // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ. 2019, 7(127). 50-56-б.

o'sishi va murakkablashib borishi; raqobatning kuchayishi, ya'ni sanoat ishlab chiqarish samarasini doimiy ravishda oshirib borish zaruriyati hamda resurslarning alohida turlarining tannarxi va narxi tushishi; ishlab chiqarilayotgan tovarlarning sifat va texnologik parametrlari oshishi. Fikrimizcha, innovatsiyalar mintaqa sanoatini barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, sanoatni rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirishda birinchi navbatda mintaqada innovasion sanoat siyosatini ishlab chiqish hamda samarali tarzda yuritish zarur.



1-rasm. Sanoat korxonalari va mintaqa barqarorligi o'zaro uyg'unligi modeli¹⁴

Yuqoridagi qarashlarni tizimli ravishda umumlashtirish asosida mintaqa sanoat korxonalari barqaror rivojlanishi bo'yicha mualliflik yondashuvini ishlab chiqamiz. Jumladan, sanoat korxonalari barqaror rivojlanishi bu mintaqada mavjud resurslarni hisobga olgan holda korxonalarni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik jihatlarini uyg'un holda ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishi hamda uning ijobiy foyda hisobiga uzoq muddatli rivojlanishidir.

Demak, sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining ijobiy o'zgarishiga erishish zarurati yuzaga kelar ekan. Ushbu jarayonni amalga oshirish ishlab chiqarishning miqdor va tarkibiy jihatdan ijobiylashtirish bilan bog'liq. Bunda, sanoat korxonalari diversifikatsiyaga hamda modernizatsiyaga alohida e'tibor qaratishi zarur. Bu jarayon o'z navbatida sanoatning samaradorligi o'sishini ham ta'minlaydi. Odatda, samaradorlik o'sishi mahsulot birligiga to'g'ri kelgan resurslar sarfining kamayishi hisoblanadi. Bu esa, sanoat korxonalarining iqtisodiy-ijtimoiy mezonlarining ijobiylashuviga olib keladi. Shuningdek, resurslar sarfining mahsulot birligiga nisbatan kamayishi sanoat korxonalariga, uning ekologik mezonlari ijobiylashuviga olib keladi. Yuqoridagilar, oxir-oqibat mintaqa iqtisodiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi hamda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi (1-rasm).

Mintaqada sanoatni barqaror davomiyligini ta'minlash borasidagi izlanishlarning ayrimlarida, masalaning barcha jihatlarini qamrab oluvchi jihatlar ham amalga oshirilgan.

¹⁴ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Jumladan, bir tadqiqot ishida, sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkil qiluvchilari hamda uning tarkibi tadqiq qilingan¹⁵. Jumladan:

unsurlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: tashkiliy; boshqaruvchilik; iqtisodiy; moliyaviy; ishlab chiqarish; texnologik; axborot; marketingli; ekologik;

usullari quyidagilardan tashkil topadi: tashkil qilish; rejalashtirish; tartibga solish; rag'batlantirish; nazorat;

tamoyillari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan: tizimlilik; maqsadga yo'naltirilganlik; iyerarxiklik; teskari aloqa; samaradorlik;

vazifalari sifatida quyidagilar qayd etilgan: tashkiliy; muvofiqlashtiruvchi; nazorat qilish; motivasion;

oqimlari quyidagilar: moddiy; moliyaviy; informasion; kommunikativ.

Yuqoridagi tadqiqot ishida sanoat barqaror rivojlanishini barcha jihatlari e'tiborga olingan. Bunda, unsurlari doirasida ijtimoiy jihat e'tiborga olinmagan bo'lsa, tamoyillari orasida tarkibiylik hamda majmuaviylik zarur hisoblanadi. Chunki, sanoatning rivojlanishi nafaqat foyda olishni, balki ishchi-xodimlari uchun ham munosib hayot darajasini ta'minlashga xizmat qilishi zarur. Shuningdek, tamoyillarida tarkibiylikka e'tibor qaratishni ilgari surayotganligimiz – korxonalar bir butun tizim bo'lsada, uning elementlari o'zaro muvofiqlikka ega hisoblanadi. Ya'ni, sanoat korxonalarini bir butun tarkibiy tuzilma hisoblanadi. Shuningdek, majmuaviylik tamoyili zamirida sanoat barqarorligining uch jihati, iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy jihatlar qamrab olinadi.

Mintaqada sanoatni barqaror rivojlantirish bir qator tamoyillarni o'z ichiga oladi. Uni qator tadqiqot ishlarida olimlar tomonidan o'rganishgan. Jumladan, R. A. Fatxutdinov fikriga ko'ra, sanoat barqaror rivojlanishining umumiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ishonchlilik tamoyili (barqaror rivojlanayotgan korxonalar yuqori darajadagi ishonchlilik bilan tavsiflanadi);

uzluksizlik tamoyili;

xabardorlik tamoyili (korxonada barqaror rivojlanishning aniq yo'naltirilgan jarayoni uchun yetarli darajada ma'lumotlar bo'lishi zarur);

sezgirlik tamoyili¹⁶.

Shuningdek, T.N.Topoleva tadqiqotlari bo'yicha esa sanoat barqaror rivojlanishining o'ziga xos tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

korxonalar quyi tizimlarining o'zaro bog'liqligi tamoyili (ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqalar bo'lib, ular quyi tizimlarni rivojlantirishda muvozanatni saqlanishini ko'rsatadi);


yakuniy maqsadning ustuvorligi tamoyili (korxonaning uzluksiz dinamik rivojlanishini ta'minlash uchun resurslarni aniqlashni nazarda tutadi);

barqaror dinamikaga erishish tamoyili (rivojlanish jarayonlarining barqarorligi va progressivligini nazarda tutadi)¹⁷.

¹⁵ Каланова А.Б. Саноат корхоналари барқарор иқтисодий ривожланишининг назарий асослари // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ. 3, 2015. 33-44-б.

¹⁶ Тополева Т. Н. Исследование принципов и факторов устойчивого развития промышленного предприятия // Вестник НПИЭИ. 2018. № 6 (85). С. 85-96.

¹⁷ Тополева Т. Н. Исследование принципов и факторов устойчивого развития промышленного предприятия // Вестник НПИЭИ. 2018. № 6 (85). С. 85-96.



2-rasm. Sanoat korxonalari barqaror rivojlanish tamoyillari¹⁸

Mualliflar mazkur yo‘nalishlarda muhim sanalgan tizimlilik, ilmiylik, majmuaviylik, samaradorlik, boshqaruvchanlik kabi tamoyillarni e‘tiborga olmagan. Bu jihatlarni ham e‘tiborga olinishi natijasida, sanoat korxonalari barqarorligi bo‘yicha tamoyillar to‘liq tarzda o‘z aksini topadi. Demak, sanoat korxonalari barqaror rivojlanish tamoyillarini ilmiylik, majmuaviylik, tizimlilik, tarkibiylik, boshqaruvchanlik, samaradorlik tarzida tasniflashni ilgari suramiz (2-rasm). Bu jihatdan tamoyillarni to‘g‘ri tanlashimiz, sanoat korxonalarini barqarorligini tadqiq qilishning to‘g‘ri yo‘nalishda olib borish imkonini beradi. Mazkur tamoyillarga tayanib o‘rganish natijasida, mintaqada sanoat korxonalarini barqarorligining omilli va natijaviy jihatlarga, uning tarmoq tarkibiy tuzilishiga ko‘ra tahlillarni o‘tkazish imkoniga ega bo‘lamiz.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarini barqarorligining mintaqaviy xususiyatlariga ko‘ra omil hamda manbalariga ham alohida e‘tibor qaratishimiz zarur. Mintaqada sanoat sohasining barqaror rivojlanishiga bir qator omillar ta‘sir qiladi. Ushbu sohada ko‘plab olimlar izlanishlar olib borgan bo‘lib, ular tomonidan turlicha tasniflash amalga oshirilgan. Jumladan, mualliflar tomonidan olib borilgan izlanishlarda yakdil qarash mavjud emas. Ayniqsa, ushbu masala mintaqaviy jihatlarga qaratilganda yanada farqli jihatlarda aks ettiradi.

Ya‘ni, T.N.Topoleva funksional quyi tizimlariga ko‘ra omillarni quyidagi turlarga ajratadi:

ishlab chiqarish omillari - bu resurslarni tayyor mahsulotga aylantirishning murakkab jarayoni bo‘lib, u qo‘llaniladigan texnologiyalar doirasi, ishlab chiqarish uskunalari va xodimlarning malaka darajasi bilan tavsiflanadi;

moliyaviy omillar - investitsiya siyosati, foydani taqsimlash, aylanma mablag‘lar miqdoridagi o‘zgarishlar va ularning korxonadagi holati;

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

myenejment omillari - barqaror rivojlanishga qaratilgan ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, boshqaruv usullarining moslashuvchanligi va samaradorligi, ishlab chiqarish oqimlari va moddiy resurslarni taqsimlash, kompetensiya va barqaror axborot ta'minoti bilan tavsiflanadi;

xodimlar - asosiy resurslar turlaridan biri hisoblanadi va ular ishchi kuchi malakasini belgilaydi;

marketing - ishlab chiqarish, moliyaviy, iqtisodiy va ilmiy-texnik faoliyatni boshqarish jarayonida qabul qilinadigan qarorlarning sifati, izchilligi va puxtaligini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi;

innovasiyalar va innovasion faoliyat - korxonaning tashkiliy, iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyatining bir qator parametrlari bo'yicha sifat jihatidan yangi rivojlanish darajasiga o'tishni osonlashtiradigan boshqaruvning turli usullari va tamoyillari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning murakkab dinamik tizimini tavsiflaydi¹⁹.

Shuningdek, boshqa bir tadqiqot ishida ham korxonaning funksional quyi tizimlarining barqarorlik darajasiga ko'ra omillar quyidagicha ajratilgan: ekologik, ta'minot va savdo kanallarini boshqaruvi, moliyaviy, xodimlar, marketing, innovasion omillar²⁰.

Shuningdek, boshqa bir tadqiqotlarda esa, omillar doimiyligi bo'yicha tasniflangan: doimiy - iste'molchilar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, xodimlar, boshqaruv qarorlari, axborot, marketing, moliya; davriy - iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va huquqiy normalar; davriy bo'lmagan - bular ekologik, texnik, siyosiy, xalqaro omillarni o'z ichiga oladi²¹.

Yuqoridagilar qatori A.V.Sidorin va V.V.Sidorinlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida korxonalar barqarorligi bu teng rol o'ynaydigan ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqilgan. Mualliflar shuningdek, innovatsiya tashkilotning barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omil ekanligini takidlashgan²². Shuningdek, boshqa bir tadqiqot ishida ham mualliflar innovatsiyani korxonalar barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida qarab o'tgan²³.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqotlar asosida Xorazm viloyatida sanoat barqaror rivojlantirish omillarini ichki hamda tashqi omillarga taniflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan, tashqi omillarga quyidagilarni kiritamiz:

O'zbekiston Respublikasi doirasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Xorazm viloyatini rivojlantirish, uning sanoatini yuqori o'sish sur'atlari bilan bog'liq ishlab chiqilgan farmon hamda qarorlar;

ekologik omillar, atrof-muhit hamda mavjud tabiiy resurslar. Jumladan, ushbu omil zahirida mintaqaning boy tabiiy resurslarga ega hududlar bilan qo'shni joylashganligi, ular o'rtasida mavjud va istiqboldagi integratsiyalar;

¹⁹ Тополева Т. Н. Исследование принципов и факторов устойчивого развития промышленного предприятия // Вестник НИПЭИ. 2018. № 6 (85). С. 85–96.

²⁰ Татаркин А. И., Гершанок Г. А. Методология оценки устойчивого развития локальных территорий на основе измерения их социально-экономической и экологической емкости // Вестник НГУ. 2006. Т. 6. Выпуск 1. С. 40–48.

²¹ Тополева Т. Н. Исследование принципов и факторов устойчивого развития промышленного предприятия // Вестник НИПЭИ. 2018. № 6 (85). С. 85–96.

²² Сидорин, А. В., Сидорин, В. В. (2014), Модель устойчивого развития предприятия на основе инновационной деятельности, Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований, № 9–2, С. 35–40.

²³ Касаева, Т. В. (2015), Оценка инновационной деятельности как фактора устойчивого развития коммерческой организации, Вестник Витебского государственного технического университета, № 28, С. 202–213.

mintaqaning xorijiy mamlakatlarga chiqish imkoniyatining yuqoriligi hamda transport tugunida joylashganligini ko'rsatib o'tamiz.

Shuningdek, ichki omillarga esa, mintaqada mavjud ishchi kuchi va uning salohiyati, investision salohiyati, turizm salohiyati va bu bilan bog'liq turizm industriyasini istiqbolli imkoniyatlar, nisbatan rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi, qishloq xo'jaligi yetishtirish bo'yicha respublikaning yetakchi mintaqalaridan biri ekanligini keltiramiz.

Shunday bo'lsada, ushbu omillarni maqbul va samarali foydalanish hisobiga sanoat sohasi jadal hamda yuqori sur'atlar bilan o'sishi ta'minlanadi. Mintaqadagi soha va tarmoqlar integratsiyasi ta'minlanadi, bu o'z navbatida barqaror rivojlanish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Салимова Т.А., Гудкова Д.Д. Инструментарий оценки устойчивого развития организации // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки. 2017. Т. 10, № 5. С. 151—160. DOI: 10.18721/JE.10514.

2.Тополева Т. Н. Исследование принципов и факторов устойчивого развития промышленного предприятия // Вестник НГИЭИ. 2018. № 6 (85). С. 85–96.

3.Вахромов Е. Н., Маркарян Д. Ю. Оценка устойчивости развития и функционирования предприятия: факторы, критерии, особенности // Вестник АГТУ. 2008. №4. С.52–62.

4.Бетилгириев М.А., Дацаева Р.Ш. Концептуальные подходы обеспечения устойчивого развития предприятия как хозяйствующего субъекта экономики региона // Управление экономическими системами: [электронный научный журнал]. URL: <http://www.uecs.ru/uecs-37-372012/item/982-2012-01-26-08-56-08>.

5.Николаев В.Е., Кузьмина Е.И., Николаев В.В. Сертификация систем менеджмента устойчивого развития // Вестник качества. 2010. № 1. С. 20-27.

6.Бекренев И.В., Лозовская Я.Н. Методические аспекты формирования адаптивного механизма устойчивого развития предприятия на основе целевого комплексного подхода // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Экономика. 2017. Т. 25. № 2. С. 233—241. DOI: 10.22363/2313-2329-2017-25-2-233-241.

7.Армишева Т.Г. Основы общей экологии: учеб. пособие. Пермь: Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2014. Ч.1. 200 с.

8.Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini ekonometrik modellar yordamida istiqbollashtirish // IQTISOD VA MOLIYA / EKONOMIKA I FINANSY. 2019,2(122). 20-26-b.

9.Umarov O.O. Sanoat siyosatini rivojlantirishning yo'nalishlari // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454. Volume 3, Issue 16, August, 2023. 19-26-b.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

